

Uzbekistan Airways bilan tropik sohillarda sayohat qiling

2022 13 Avgust

Joriy yilning kuz oylaridayoq Uzbekistan Airways yo'lovchilari eng mashhur yo'nalishlardan biri bo'lgan Tailand va Malayziyaga to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarda sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuningdek, Vyetnamga ham aviaqatnovlar tiklanishi rejalashtirilgan.

Shu yoz dengizga ta'tilga chiqa olmagan bo'lsangiz, tushkunlikka tushmang, tez orada siz dunyoning aqlga sig'maydigan go'zalliklaridan, shuningdek, dengiz bo'yidagi qumli qirg'oqda quyoshdan bahramand bo'lishingiz va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida suv sportining barcha turlarini sinab ko'rishingiz mumkin.